Holati: Ijobiy
Direktor: Xolliyev Baxtiyor Bozorovich
Sana: 01-08-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

253382 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, “Taxtapul” MFY, Taxtapul ko‘chasi 31 uy manzilida O`z chegara hududidan chiqmagan holda "Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binosi" qurilishi	
Buyurtmachi:	Fuqaro VALIYEV ULUG'BEK ABDUGANIYEVICH
Bosh loyihachi:	"IDEAL PROJECT" mas’uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	084628

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Buyurtmachi tomonidan loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalash topshirig`i.

1.2. Toshkent shahar Yunusobod tumani Qurilish bo‘limining 2023 yil, 12-iyundagi 1726277-115594-sonli Ruxsatnomasi.

1.3. 07.07.2023 yilda berilgan 1726-1726277-70069-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologık ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali Davlat ekologik ekspertizasining 05.05.2025 dagi 01-02/14-5871-sonli Xulosasi.

1.5. Toshkent shahri Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 16.06.2025 yildagi 195294440 -sonli X ulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Bosh reja.

2.2. Umumiy tushuntirish xati.

2.3. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.4. « GEOSFERA DEVELOPING GROUP » MChJ tomonidan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik shart-sharoitlari bo‘yicha Xulosa berilgan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino					
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**
Savdo va xizmat ko'rsatish binosi	"SAVDO VA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH BINOSI"	3	414	645	8361
Jami:			**414**	**645**	**8361**

3.1. Ishchi loyihaning yechimlari:

-Xisobiy zilzilabardoshligi - 9 ball.

-Normativ shamol bosimi - 0,38 kPa.

-Normativ qor qatlami vazni - 0,50 kPa.

-Tuproqni muzlash chuqurligi - 0,7 m.

Asos sog‘ tuproqsimon (Suglinok va syupess lyossimon) I turdagi cho‘kuvchan loyli gruntdan iborat bo‘lib, uning beton va temir-beton qurilma (konstruksiya)larga nisbatan ta’sirini agressiv emas deb baholash mumkin.

Er osti suvlarining mavjudligi yer yuzasidan 7.6-7.8m chuqurlikgacha ko’tarilishi mumkin.

3.2. Bosh reja.

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, “Taxtapul” MFY, Taxtapul ko‘chasi 31 uy manzilida O`z chegara hududidan chiqmagan holda "Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binosi" qurilishi

Bosh rejada quyidagi bino ko’zda tutilgan:

"Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binosi"

Birinchi va ikkinchi qavatda savdo do‘konlari, uchinchi qavatda maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari va tepasida terassa joylashgan.

Umumiy maydon - 645 м2

Qurilish maydoni - 414 м2

Qurilish hajmi - 8361 м3

3.3. Arxitektura va Konstruktiv yechimlari.

Savdo va maishiy xizmat binosi.

Bino uch qavatli, terassa va yerto’ladan iborat murakkab to’rtburchak shaklda bo’lib uning o‘lchamlari rejadagi o’qlar bo’yicha 21.45m x 23.8m (1-4 x A- E), qavatlar balandligi yerto’la-3.0; 1-qavat-4.0m; 2-qavat-3.6m; 3-qavat-3.6m; terassa-3.0m (poldan qoplamaning pastki qismigacha).

Bino quyma temir-beton konstruksiya vositasida qurilgan.

Poydevorlar – umumiy (sploshniy) quyma temir-betondan iborat bo‘lib, betonning sinfi (turi)-V20.

Devorlar pishiq g’ishtdan ko‘tarilgan, sathi (hajmi) yo 0,000 belgidan yuqori, qalinligi 380mm (II toifadagi g‘isht terish). Parda devorlar qalinligi 120mm (II toifadagi g‘isht terish) va metall karkas bilan mustahkamlangan

Ustunlar va to’sinlar quyma temir-betondan, betonning sinfi (turi)- V25.

Qoziq (o‘zak)lar, va zilzilaga qarshi belbog‘(tortqi)lar quyma temir-betondan, betonning sinfi (turi)- V15.

Orayopmalar – ko’p bo’shliqli temir-beton va quyma temir-betondan qilingan va temir-beton kamarlar bilan mahkamlangan.

Ichki zinapoya va lift shaxtasi quyma temir-betondan, beton sinfi V15.

Tashqi yong’inga qarshi zinapoya metall konstruksiyadan.

Qoplamalar – metall konstruksiyadan iborat.

Binoning tom yopmasi (qoplamasi) yassi bo‘lib, nov o‘rnatilgan.
Soyabonning tom yopmasi nishob bo‘lib, suvlar oqib tushadigan novlar o‘rnatilgan metall konstruksiyalarga biriktirilgan profnastildan iborat.

3.4. «Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda bino loyhalaghtirilgan» yechimlari.

Loyihalanayotgan bino hududida avtoturargohlardagi avtomobil o‘rinlarining umumiy sonidan 3 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan, Bino va inshootlarning kirish qismida o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun panduslar bilan jihozlangan, Hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 0,45 m dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontal yuzaning chetlarida 15–20 cm balandlikdagi bortlar nazarda tutilgan, Eshiklar, zinalar va panduslarga chiqish joylari oldidan 0,6 m masofada ogohlantiruvchi taktil qoplamalar bilan qoplangan va maxsus ranglar bilan ajratib ko’rsatilgan, ko‘rishda va eshitishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar talablari hisobga olinib, ma’lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalar o'rnatilgan, shuningdek maxsus xojatxonalar loyihalangan. Ishchi loyiha “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-22 talablariga to’liq javob beradi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ichki muhandislik tizimlari.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni avtomatik o‘chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART xulosasiga va loyixalashtirish topshirig‘iga asosan).

4.2. Yong‘in xavfsizligi.

Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish yerto‘laga ega uch qavatli bino qurilishi loyihasi ekspertizaga taqdim etildi. Tuzilmalarning chegaraviy holatlariga ko'ra, bino yong'inga chidamliligi II sinfga kiradi. Strukturaviy yong'in xavfi sinfi C0. Funktsional yong'in xavfi klassi F3.1. Birinchi va ikkinchi qavatda savdo do‘konlari, uchinchi qavatda maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari va tepasida terassa joylashgan. Qo‘shni binolardan shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy tomondan mustahkam yong‘inga chidamli devorlar bilan ajratilgan. Evakuatsiya yo'llarida devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan ishlangan. Avtomatik yong'in signalizatsiyasi va yong'indan ogohlantirish tizimi mavjud. Ichki yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi 2,5 l / sek 1 oqim tezligida mo'ljallangan. "Chiqish" belgilari bilan favqulodda yoritish ta'minlanadi. O't o'chirish mashinalari uchun o'tish joyi.

4.3. Energiya samaradorlik.

Binoning ichki va tashqi qismida energiya tejash uchun mo'ljallangan sensorli LED chiroqli panellar o‘rnatilgan;
Ushbu obyektda tomiga quyosh panellari o’rnatiladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologık ekspertizası markazi Toshkent shahar filiali Davlat ekologik

ekspertizasining 05.05.2025 dagi 01-02/14-5871-sonli Xulosasi.

5.2. Toshkent shahri Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 16.06.2025 yildagi 195294440 -sonli Xulosasi..

5.3. Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **11 129 558 840** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

11 035 035 186 so'mga kamaytirilib, **94 523 654** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **32 545 688** so'm

Asbob-uskunalar: **28 487 112** so'm

QQS: **37 541 234** so'm

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

-- Loyihada otmostka(trotuar) ko’rsatildi.

-- Binoning yonuvchan qoplamalari elementlariga yong‘inga qarshi ishlov beriladi, asos: 6.1-band. SHNK 2.01.02-04.

6.3. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

7. Xulosalar.

7.1. Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, “Taxtapul” MFY, Taxtapul ko‘chasi 31 uy manzilida O`z chegara hududidan chiqmagan holda "Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binosi" qurilishi ishchi loyiha ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, keyingi ko'rib chiqishga va tasdiqlashga tavsiya etiladi. Tuzatilmagan kamchiliklar va ekspert bilan kelishmagan holda kiritilgan keyingi har qanday o‘zgartirish uchun buyurtmachi va loyihachi

mas’uldir.

Ekspert mutaxassislar:
Konstrukciya qismi. Tulebaev Z. , Yong‘in xafsizlifgi. Zyuz.V.V.
Energiya samaradorligi: Sultonov K.